

TARIXIY ROMANLARINING BADIY XUSUSIYATLARIGA DOIR

*Sormonov Odil Muhammadovich,
Samarqand, Kattaqo'rg'on tumani
80-maktab o'qituvchisi*

XX asr o'zbek romanchiligining taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan adiblardan biri Odil Yoqubovdir. Tarixiy romanchilikdagi mahorati «Ulug'bek xazinasini», «Ko'hna dunyo» romanlarida o'z ifodasini topgan. Yozuvchi tarixiy romanlari orqali tarixdagi buyuk shaxslar faoliyati, davrning ijtimoiy ziddiyatlari, inson qalbidagi kechinmalarni haqqoniy ifodalashga harakat qilgan. «Odil Yoqubovning «Ulug'bek xazinasini» romanidayoq palifonik ifoda tarziga moyillik sezilgan edi, yozuvchi «Diyonat» va «Ko'hna dunyo» romanlarida shu tasvir prinsiplarini izchil davom ettirdi», - deb yozadi, adabiyotshunos U. Normatov [1, 112-bet].

Darhaqiqat, yozuvchi o'z romanlarida hodisa va qahramonlarga turlicha tomondan yondashish etakchilik qiladi. Odil Yoqubov ijodida «Ulug'bek xazinasini» romani salmoqli o'rin egallaydi. Xronologik izchillik asosiga qurilgan asarda tasvir ruhiyati badiiy makon va zamon yaxlitligidan o'sib chiqadi. Aslida tarixiy ilg'am ifodasini sharoit taqozosi va davriy intizom uyg'unligi tayin etadi. Shu ma'noda, estetik markazda uyushgan mohiyat epik maydonni tavsiflaydi. Adib qahramon sifatida real tarixiy siymolarni tanlar ekan, xarakter badiiy tadrijini "roman vaqti" (M.M.Baxtin) birligiga bo'ysundiradi, e'tiborli jihati shundaki, ifoda mustaqilligi tizimida til xarakterga, xarakter esa tilga o'tib turadi. Ayni paytda, dialektik aloqadorlik qonuniyati romanda vaziyat mantig'i-hayotiy ziddiyat-ruhiy holat uzviyligi falsafiy teranligini badiiy umumlashtirishga sharoit hozirlaydi:

«Juma kuni edi. Mirzo Ulug'bek Hirotda kirishi munosabati bilan barcha din peshvolari, arkoni harb va arkoni davlatlar masjidi jomega yig'ligan edi. Mirzo Ulug'bek Hirotning a'yon va boyonlari qurshovida Madrasai Shohruhiyadan chiqib, qiblagohi qurdirgan qalandarlar xonaqosidan o'tayotganida soch- soqoli o'sib ketgan, majnunsifat bir darvesh paydo bo'ldi-yu, xuddi zikr tushayotganday g'alati harakatlar qilib, bejo ko'zlarini o'ynatib, uning yo'lini to'sdi» [2, 23-24].

Roman poetikasida hodisot uzviyligini badiiy makon hamda zamon orasida kechadigan munosabat dalolatlaydi. To'g'rirog'i, voqealar tizimi mantiqiy tadriji ikki estetik juzv tutashuvini taqozo etadi. "Badiiy makon – struktura komponentlari intizomini ijodiy segment sari yo'naltiradigan asosiy kategoriya bo'lib, davr ruhiyati va ijtimoiy mezon yaxlitligini belgilaydi» [3, 46-bet], - deb yozadi rus adabiyotshunosi G.N.Pospelov.

Odil Yoqubov “Ulug‘bek xazinasi” romanida Mirzo Ulug‘bek hayoti eng dramatik pallasi – so‘nggi ikki yil voqelarini qamraydi. Qisqa adabiy xronolog bir necha makoniy sarhadlarda kechadi. Muallif muayyan tarixiy ilg‘amda ruhiy kechinma va faoliyat psixologiyasini uyg‘unlashtirar ekan, buyuk olim tiynatini analitik planda yoritishga mantiqiy urg‘u beradi. Romanda Mirzo Ulug‘bek hayoti solnomasi muhim bosqichi o‘z ifodasini topgan. Unda qahramon ijtimoiy hayotdagi o‘rni, ruhiy kechinmalari, ilm va toj-taxt o‘rtasidagi ziddiyatlar tasvirlangan. Voqealar tizimi ma‘lum bir makonda, ya‘ni Xuroson sarhadlarida yuz beradi. Makonda yuz bergan voqealar shiddati zamonga o‘tadi. Bu jihatdan o‘rta asrdagi jaholat bag‘rida yorqin yulduz bo‘lib porlagan Mirzo Ulug‘bek hayotining so‘nggi damlarida, uning nodir ilm xazinalaridan, bitgan asarlari-yu, suyuqli shogirdlaridan, rasadxonasi-yu, ona vatani – Samarqanddan benasib bo‘lish arafasida o‘g‘li Abdullatif bilan qilgan dialogik nutq munozarasi xarakterlidir:

“...Menga hech narsa kerak emas. Bu toju taxt, saltanat, shon-shuhrat-bari o‘zingga buyurg‘ay! Otangga yolg‘iz rasadxonani in‘om etsang bas! Bir burda non, bir qumg‘on sovuq suv bo‘lsa etar. Azmim-qolgan umrimni “Ziji Ko‘ragoniy”ni tugatib, mutolaa bilan kun kechirmoqdur!.. Shahzoda keskin burilib qaradi. Siyrak mo‘ylovining uchlari dikrayib, lablari titrab: - Tag‘in rasadxona! Tag‘in “Ziji Ko‘ragoniy”, - dedi bo‘g‘ilib. -Mudarris dastorini o‘ragan barcha murtaqlarni qanotingiz ostiga olib, din peshvolarini oyoq osti qilmishsiz! Bul uchun haq taoloning qahriga, payg‘ambar alayhissalomning qarg‘ishiga uchrab, taxtu tojdan, saltanatdan ayrilmishsiz. Ammo istig‘for aytmoqni tilamay, tavba-tazarru qilmoqni istamay, tag‘in rasadxonani o‘ylaydursiz!..” [2, 106-107-betlar].

Bu muloqot o‘zini ilmu ma‘rifat rivojiga baxshida etgan ota bilan taxtni egallashga intilayotgan valiaxd shahzoda o‘rtasidagi keskin ma‘naviy olishuv deyish mumkin. Biz bu keskin olishuvdan kichkina parcha keltirdik, xolos. Ota va noqobil farzand o‘rtasidagi bu dialog ikki xil xarakterning ichki mohiyatini ko‘zgudek yaqqol ko‘rsatishga xizmat qiladi. Dialog bilan tanishgan kitobxon Ulug‘bek bilan Abdullatifni ota-bola emas, balki bir-biriga zid ikki olam deb tasavvur qiladi. Bu dialog zamirida ilm bilan jaholat, yaxshilik bilan yomonlik, ezgulik bilan qabohat o‘zaro kurashayotgandek tuyuladi. Ulug‘bek ota sifatida farzandi Abdullatifga achinadi, kuyinadi va o‘g‘liga otalik mehri jo‘shib, nasihat qilmoqchi bo‘ladi. Lekin Abdullatif otaning beg‘araz niyatini to‘g‘ri qabul qilmaydi.

Sohibqiron Amir Temur suyuqli nabirasi, butun umri e‘zozda o‘tgan, buyuk alloma Mirzo Ulug‘bek “bir burda non, bir qumg‘on sovuq suvga” rozi bo‘lib, qolgan umrini ilmga, asarlarini tugatishga sarflamoqchi bo‘lganida noqobil o‘g‘il otasining bu oliyjanob, pok niyatini o‘zicha masxara qiladi. Ota ilm-fandan, rasadxonadan gap

ochsa, ochko'z farzand bobosi Amir Temur tillalarining yashiringan joyini otadan dag'dag'a bilan so'rashga jur'at etadi.

Matn davomiyligida Mirzo Ulug'bek obrazining tipik xususiyatlari kitobxon ko'z o'ngida namoyon bo'ladi. Bu o'rinda allomaning o'ziga xos otalik burchi, farzandiga aytmoqchi bo'lgan nasihatlari, ilm yo'lidagi zahmatkashligi uning donishmand keksalarga xos quyidagi mushohadalari vositasida namoyon bo'lganligini alohida ta'kidlashni istardik:

“ – Bu suhbatdan yolg'iz muddaom – otalik nasihatimni bermoq edi. Taassuflar bo'lg'aykim, senga padar nasihati emas, oltin kerak ekan!.. – Shahzoda gapini bo'lmoqchi ekanini ko'rgan Mirzo Ulug'bek keskin qo'l siltab: “To'xta!” deb buyurdi. – Ota so'zi amri vojib, deb bilursenmi, yo'qmi – ixtiyor senda. Va lekin so'nggi nasihatni eshit: xohla o'z padaringni qatl et, xohla Movaraunnahr sarhadidan haydab, darbadar qil – boz ixtiyor sendadur. Lekin yolg'iz tilagim: ilm yo'lida otang qilgan ishlarga, uning shogird va ustodlariga tegmagaysen. Tegsang... ota qarg'ishiga uchrab toabad badnom bo'lursen!.. Ota rozi – xudo rozi, yodingda bo'lsin: al qasosul minalhaq! Hech bir yomonlik intiqomsiz qolmaydur! Senga aytadurg'on boshqa so'zim yo'q! Chaqir yasovulingni!” (109-bet).

Ko'rinadiki, bu dialog adog'i Mirzo Ulug'bekning monologik nutqiga aylanib ketgandek tuyuladi. Ulug'bek o'zi bilan o'zi gaplashgandek, yuragini kemirayotgan zardali so'zlarni nobakor o'g'liga to'kib tashlaydi. Farzandiga amrimni, nasihatimni eshit, deb da'vat qiladi. Ayni vaqtda taxtga o'tirgan shahzoda o'g'lining mavqeiga mos holda “boz ixtiyor sendadur”, deydi. Bu o'rinda alamzada otaning dil so'zlarini o'g'liga aytishdan boshqa ilinji qolmagan edi. Bu holat esa yuqorida keltirilgan dialogda o'z o'rnida berilgan, ya'ni Mirzo Ulug'bek nutqi tarkibida “ota qarg'ishiga uchrab toabad badnom bo'lursen”, “ota rozi – Xudo rozi”, “hech bir yomonlik intiqomsiz qolmas”, “al qasosul minalhaq” kabi aforizmlarning berilishi ulug' alloma Mirzo Ulug'bek xarakterini tipiklashtirishga xizmat qiladi. Chunki hech bir ota o'z jigarbandi, farzandiga yomonlikni ravo ko'rmaydi, uni nohaq qarg'amaydi. Lekin Abdullatif toifasidagi farzandlar o'z otasining ilmini, ustozariyu shogirdlarini oyoq-osti qilar ekan, bu nobakor farzandlarning qilmishlari intiqomsiz qolmasligi ota bilan o'g'il o'rtasidagi tafovutda haqqoniy ifodasini topgan. Asardagi ruhiyat tasviri keskin qarama-qarshiliklar asosida yoritiladi.

Asar qahramonlarining o'ziga xos xarakterini, qalb kechinmalarini dialogik nutq bilan bir qatorda, monologlar orqali ham asosli yoritadi. Yozuvchi romanda ana shunday real makonda tipiklashgan ota va o'g'il obrazi ruhiy holatlarini shundaygina ko'rsatib qo'ya qolmay, balki ziddiyatlar vositasida, shiddatli ruhiy tortishuvlarda ularning qalb kechinmalarini kitobxonga yaqqolroq ko'rsatishga muvaffaq bo'lgan. Bu

romandan olingan qaysi bir bahs jumlasiga e'tibor bermang, ular asar g'oyasini ochishga, personajlar xarakteridagi tipik xususiyatlarni to'liq gavdalantirishga bo'ysundirilgan.

Adib muayyan tarixiy ilg'amda dialogik ong boshqaruvini birlamchi o'ringa ko'targanligini alohida ta'kidlash lozim. Bu xususiyat esa asarda faqat Mirzo Ulug'bek, Abullatif, Ali Qushchi kabi tarixiy shaxslargina emas, balki, Salohiddin zargar, Qalandar Qarnoqiy, Xurshida Bonu, Qashqir, Bosqonbek singari to'qima obrazlar ruhiyatini yoritishda ham kuchli uslubiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Normatov U. Yangi o'zbek adabiyoti. –Toshkent: «Universitet», 2007. – 186 bet.
2. Yoqubov O. Tanlangan asarlar. Ikki jildlik. Ikkinchi jild. Ulug'bek xazinasi. Roman. – Toshkent: 2007, – 352 bet.
3. Pasfelov G. N. Problema literaturnogo stilya. –Moskva: «Nauka», 1970, –240 str.
4. Nasirov A.N. Turk adabiyotinin gelisiminde devlet rakamlarinin veri (Mustafa Kamal Ataturknun faaliyateti ornegi uzerinden). “In memory of the 142th anniversary of his birth” 3rd international Ataturk symposium. 19-may, 2023. Azerbaijan Attaturk Center, Baku, 10-15-betlar.
5. Насиров А.Н. **Свойства художественного языка в историческом романе.** Евразийский союз ученых (ЕСУ). Международный научно-исследовательский журнал. №7 (76) / 2020. 3 часть. Impact Faktor 2020: 6.05. ISSN 2411-6467. 33-35-стр.
6. Nasirov A.N. **Artistic chronotope interpretation in Odil Yakubov's novels.** Academia: An Internatioonal multidisciplinary Research journal ISSN222-49-7137. Impact Faktor SJIF 2020: 7.13. Str. 498-501.